



## SURXONDARYO VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI (2019 yil yanvar-aprel)

Viloyat bo`yicha joriy yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2898,0 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 5,7 % ga o`sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 289,0 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 28,5 %), kichik tadbirdorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 2609,0 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 3,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 250,8 mlrd. so`mni (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 0,6 % ga ko`paygan) tashkil etdi.

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi  
(mlrd. so`m)**




2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o`sish sur`atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o`sish sur`atlari Termiz shahrida (20,7%), Termiz t (9,4 %), Denov (3,6 %) Sho`rchi (2,1 %) va Muzrabot tumanlarida (1,8%) qayd etildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)**


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 28,5% ga o'sdi va 289,0 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 10,0 % ulushiga to`g'ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra 2609,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 3,7 % ga o'sdi. viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 90,0 % ga teng kelmoqda.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)



### Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirdorlikning ulushi, (%)




Tahliliy natijalarga koʼra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirdorlik sub`ektlarining ulushi boʻyicha Muzrabot (99,4 %), Uzun (98,8 %), va Oltinsoy (97,1%) ,

tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 10,0 % ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz shahrida (30,4 %), Termiz (18,0%) va Jarqo'rg'on tumanlarida(5,8 %) kuzatilgan.


Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Termez shahri (22,8 foiz), Denov tumani (20,8 foiz), Sho'rchi (8,9 foiz), Sherabod (5,7 foiz) va Jarqo'rg'on (5,3 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

### Tumanlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda



**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining  
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>289,0</b>	<b>128,5</b>	<b>2609,0</b>	<b>103,7</b>
Termiz Sh.	200,4	239,5	459,1	99,3
Oltinsoy	3,6	42,9	119,8	104,6
Angor	4,9	56,8	124,8	104,2
Boysun	5,2	62,9	119,8	103,3
Muzrabot	0,7	17,4	113,3	105,0
Denov	18,9	73,5	583,4	105,0
Jarqo'rg'on	8,9	67,1	145,7	104,2
Qumqo'rg'on	5,3	51,7	120,9	105,2
Qiziriq	4,5	56,5	124,2	103,7
Sariosiyo	5,8	68,4	117,6	103,2
Termiz	13,5	115,8	61,5	108,1
Uzun	1,3	19,8	109,5	105,8
Sherobod	7,3	54,7	159,0	104,7
Sho'rchi	8,7	59,5	250,4	104,6

**Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**


Jumladan, 2019 yilning yanvar-aprel oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,3 % ni tashkil etib, 66,5 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 7,1 % o`sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 88,0 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

**SURXONDARYO VILOYATINING  
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI  
(2019 yil yanvar- aprel)**

Yanvar-aprel oylarida viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 753,7 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 10,9 % ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajmi kichik tadbirkorlik sub`ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajmi 2019 yil yanvar-aprel oyilari yakunlariga ko'ra, 504,0 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,1 % ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 66,9 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tumanlar bilan taqqoslaganda, Termiz (92,7%), Sariosiyo (84,5%), Boysun (83,7%) va Angor (81,8%) tumanlarida yuqori bo'lgan.

### **Yirik va kichik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 33,1 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarining aksariyati Muzrabot (68,5%), Qumqo'rg'on (64,9%) va Jarqo'rg'on (55,3%) tumanlarida kuzatildi.

### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>753,7</b>	<b>110,9</b>	<b>249,7</b>	<b>117,0</b>	<b>504,0</b>	<b>108,1</b>
Termiz Sh.	137,9	99,2	57,7	89,4	80,2	107,8
Oltinsoy	32,3	111,0	12,5	112,7	19,8	110,0
Angor	44,3	116,3	8,0	170,7	36,3	108,6
Boysun	3,0	96,0	0,5	61,9	2,5	107,5
Muzrabot	40,8	132,5	27,9	151,2	12,9	104,3
Denov	157,4	109,9	30,7	110,6	126,7	109,7
Jarqo'rg'on	63,0	122,1	34,9	138,3	28,1	106,7
Qumqo'rg'on	32,9	118,7	21,3	125,6	11,6	107,8
Qiziriq	51,5	115,6	18,2	136,4	33,3	106,6
Sariosiyo	27,4	108,1	4,2	105,8	23,2	108,5
Termiz	79,5	112,1	5,8	164,8	73,7	109,4
Uzun	15,7	105,6	5,2	105,3	10,5	105,8
Sherobod	49,3	114,9	14,9	148,3	34,4	104,7
Sho'rchi	18,7	102,4	7,9	98,6	10,8	105,4

### Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o`tgan yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari, (%)



Ulgurji tovar aylanmasida o`tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur`ati Boysun tumanida (96,0 %) va eng yuqori o'sish esa Muzrabot tumanida (132,5%) qayt etilgan.

Surxondaryo viloyat statistika  
boshqarmasi tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi bo'limi  
(0371) 230-85-82